

UCH SHOXLI NERV SHIKASTLANISHIDA DAVOLASH TAMOYILLARINING QIYOSIY BAHSI

Shomurodov Qahramon Erkinovich

t.f.d., professor, TDSI

Xamatov Erkin Beknazarovich

Mustaqil izlanuvchi, SamDTU

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10088093>

ARTICLE INFO

Received: 03rd November 2023

Accepted: 08th November 2023

Online: 09th November 2023

KEY WORDS

Uch shoxli nerv, jag' suyagi sinishi, elektroortodontiya (EOD), yuz-jag' sohasi (YuJS), diadinamik elektroneystimulyatsiya (DD-ENS).

ABSTRACT

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda jarohat va baxtsiz hodisalar chastotasi o'limga olib keladigan sabablar orasida yurak-qon tomir va o'sma kasalliklaridan keyingi uchinchi o'rinni egallagan. Aholining nogironligi omillari va ishslash layoqatini vaqtincha yo'qotish tuzilmasida esa ikkinchi pog'onada turadi. Tadqiqot maqsadi yuz suyaklari sinishlarida uch shoxli nerv tolalarini zararlanish darajasi va og'irligiga qarab davolashning turli usullarini qiyosiy baholash. Og'irlilik darajalariga ko'ra yuz-suyaklari sinishlari asab-qon tomir tutamlarining jarohatlarida "Neyromedin" dori vositasilari ta'sirini qonda mielin oqsili ko'rsatkichlari xolatiga ko'ra davo samaradorligini taxlil qiladigan bo'lsak, klinik va funksional tadqiqotlar natijalari yuz-jag' sohasining uch shoxli nerv periferik tarmoqlari shikastlanishi bilan kechadigan sinishlarini kompleks davolash asab tolalarining sensor va motor faoliyatini tiklash bo'yicha ijobjiy natijalarni shakllantirishda samarali ekani, shuningdek, an'anaviy terapiya bilan taqqoslaganda, suyak bo'laklarining tezroq birikishiga xizmat qilishini namoyish etdi.

Dolzarbli. Mamlakatimizda tibbiyot rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu sababli sog'liqni saqlash tizimida o'tkaziliyotgan islohotlar samradorligini oshirish, hamda inson qadr-qimmati uchun qilinayotgan xizmat ko'rsatish turlarini sezilarli kengaytirish bo'yicha keng ko'lamli maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda jarohat va baxtsiz hodisalar chastotasi o'limga olib keladigan sabablar orasida yurak-qon tomir va o'sma kasalliklaridan keyingi uchinchi o'rinni egallagan. Aholining nogironligi omillari va ishslash layoqatini vaqtincha yo'qotish tuzilmasida esa ikkinchi pog'onada turadi. Hozirgi paytda yuz-jag' sohasi (YuJS) jarohatlari davriyligi ko'rsatkichlari muntazam oshib bormoqda — jarohatlarning umumiy sonida ularning ulushi yiliga o'rtacha 6-8% ni tashkil etadi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, yirik shaharlarda yuz skeleti suyaklarining



sinishi bilan kechadigan yuz-jag' jarohatlari miqdori sezilarli darajada ko'paygan va shifoxonaga yotqizilganlarning 42 foizgachasini qamrab oladi.

Yuz o'rta zonasiga jarohati asoratlaridan biri uch shoxli nerv II tarmog'inining (*n.maxillaris*) posttravmatik nevropatiyasi bo'lib, u mazkur shikastlanishning 80% holatida kuzatiladi (Sharogorodskiy A.G., 2004). Buning oqibatida yuqori jag' tishlari pulpasining yuzaki sezuvchanligi va elektr qo'zg'aluvchanligining hamma turlarida o'zgarishlar yuz beradi, tegishli innervatsiya sohasidagi trofik jarayonlar buziladi. Shuningdek, yallig'lanish hodisalari chastotasi va uch shoxli nervning shikastlanishi o'rtasida ham muayyan bog'lilik aniqlangan.

Nazarov V.M. va uning hammualliflari (2008) uch shoxli nerv periferik tarmoqlarining jarohatdan shikastlanishini kompleks davolashga nisbatan zamonaviy yondashuvlar jag' suyak kanalining bиринчи нейрони shikastlangan bemorlarning stomatolog-jarroh va yuz-jag' jarrohlarida davolanishiga asoslanganini ta'kidlashgan.

A.A. Hakimov (2019) tomonidan olib borilgan tadqiqot ishida pastki jag'suyagi tish qatori sohasidan singan bemorlarda davolash natijalari o'rganilgan. Bemorlarning titan mini-plastina va vintlar yordamida osteosinteze operasiyasi usuli qo'llanilganda titan mini-plastina va vintlar bilan osteosinteze usulida davolash nisbatan samaradorligi Boymuradov Sh.A. Bobamuratova D.T., (2016); Xramova N.V. tomonidan, (2020) isbotlangan.

Tadqiqot maqsadi: Yuz suyaklari sinishlarida uch shoxli nerv tolalarini zararlanish darajasi va og'irligiga qarab davolashning turli usullarini qiyosiy baholash.

Tadqiqot materiallari va metodlari: Yuz-jag' sohasi jarohatlarida nervlar shikastlangan 60 nafar bemorlar 2017-2022 yillarda Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyat markazi (RITOIATM), prospektiv o'rganib chiqildi. Ularning 37 nafarini (61,6%) erkaklar, 23 nafarini (38,3%) ayollar tashkil qildi. 38(63,3%) bemor 18-30 yoshlilar, 22 nafari (36,7%) 31-50 yoshlilar toifasidan o'rinni oldi. Nazorat guruhiga 20 nafar shartli sog'lom shaxslar kiritildi. Davo muolajalariga ko'ra asosiy guruh 3ga bo'lindi:

1-guruhg'a jarrohlik yo'li (suyak bo'laklari repozitsiyasi, osteosinteze immobilizatsiya) va an'anaviy dori terapiyasi yordamida davolanayotgan 20 nafar bemor kiritildi.

2-guruh mahalliy davolash kompleksi - jarrohlik yo'li va an'anaviy dori terapiyasiga qo'shimcha sifatida "Neyromidin" vositasi kiritilgan 20 nafar bemordan shakllantirildi.

3-guruh jarrohlik va an'anaviy dori terapiyasi va qo'shimcha sifatida kiritilgan "Neyromidin" vositasidan iborat davolash tartibiga uch shoxli nerv periferik tarmoqlarining sezuvchanligi va harakatchanligini tiklash maqsadida teri orqali amalga oshiriladigan diadinamik elektroneystimulyatsiya (DD-ENS) muolajasi olayotgan 20 nafar bemordan tuzildi.

Tibbiy hujjatlar ma'lumotlari o'rganildi, bemorlarning kasalxonaga kelgan paytdagi umumiylahvoli, periferik nerv tolalari shikastlanishi alomatlarining bor yoki yo'qligi, belgilar tabiat, tashxislashning borishi va hajmi, davolash taktikasi va davomiyligi, davolash jarayonida boshqa ixtisoslikka ega tibbiy mutaxassislarining ishtirokida baholandi. Tish-jag' tizimi holatini birlamchi baholash uchun ortopantomografiya (OPTG) qo'llanildi. Yonoq suyagi va ravog'i konturlarini aniqlash uchun rentgen tekshiruvida yuzning burun-iyak sohasi tavsiri olindi. Kontaktli rentgenografiya va ortopantomogrammalar ma'lumotlari yetarli bo'limganda konus-nurli kompyuter tomografiyasi (KNKT) usulidan foydalanildi.



An'anaviy dori terapiyasi - bakteriyaga qarshi dori- vositalari qabul qilish, og'iz bo'shlig'ini 0,02% xlorgeksidin biglyukonat bilan chayishni tayinlash orqali amalga oshirildi. Shikastlangan asab tolalari faoliyatini tiklash uchun kompleks davolash doirasida bemorlarga glyukokortikosteroidlardan iborat terapiya belgilandi; YaQNV (yallig'lanishga qarshi nosteroid vositalar); vitamin terapiyasi – siankobalamin, tiamin eritmasidan; Nukleo sMF Forte buyurildi.

Teri orqali o'tkaziladigan diadinamik elektroneyrostimulyatsiya shu muolajaga mo'ljallangan maxsus Dia-DENS-DT uskunasi yordamida amalga oshirildi. Uch shoxli nervning sinishdan jarohatlangan tarmog'i orqali innervatsiya qilinadigan ta'sir zonalari aniqlandi.

Ilmiy izlanish natijalari variatsion statistikaning umumiyat tomonidan qabul qilingan usuli yordamida, tibbiy-biologik tadqiqotlar uchun mo'ljallangan dasturlarni qo'llagan holda statistik tahlildan o'tkazildi. Natijalar mediana shaklida namoyon qilindi, o'rtacha qiymatlar orasidagi farqlar ahamiyati Styudent mezoni bo'yicha asoslandi (ahamiyatlilik darajasi 95%). Farqlar ahamiyat darajasi $r < 0,05$ qiymatga ega bo'lgan holatlarda asosli deb hisoblandi. Tadqiqotlarni tashkil qilish va o'tkazishda dalilli tibbiyot tamoyillaridan foydalanildi.

Natijalar: Giperestetik o'zgarishlar aniqlangan bemorlarning 15 nafarida og'riq sezuvchanligi, 13 nafarida esa taktil sezuvchanlikning buzilishi qayd qilindi. Gipestetik muammolarga ega bemorlarda taktil va harorat sezuvchanligining buzilishi 8 nafar, chuqur sezuvchanlik esa 2 shaxsda saqlanib qoldi. Terining karaxt zonalarida esa o'zgarish kuzatilmadi (1-jadval).


1-jadval.

Sensor-parestetik buzilishlarning (gipo-/giperesteziya) an'anaviy davolashgacha va undan keyingi monitoringi

Buzilishlar	Davolash nazorati	Og'riq	Taktil	Harorat	Chuqur
Gipesteziya	oldin	2 (10%)	5 (25%)	6 (30%)	2 (10%)
	keyin	0	4 (20%)	4 (20%)	2 (10%)
Giperesteziya	oldin	18 (90%)	15 (75%)	2 (10%)	0
	keyin	15 (75%)	13 (65%)	0	0

Tishlarning davolashdan oldingi o'rtacha EOD ko'rsatkichi $102,41 \pm 1,84$ bo'lgan bo'lsa, an'anaviy terapiyadan keyin $89,31 \pm 1,58$ shartli birlikni tashkil qildi. Davolash muolajalaridan keyin EOD ko'rsatkichlari 12,8%ga yaxshilandi, lekin, shu bilan birga, uning normal qiymatlardan yuqori ekani qayd etildi. Davolashning 14-kuniga kelib **2-guruh** bemorlarida og'riq hissi jadalligi birmuncha pasaydi — ko'pchiligidagi analgetiklar qabul qilganidan keyin zaif og'riq sezilgan. 8 (40%) bemorda og'riq qoldiruvchi dori vositalarini muntazam iste'mol qilib turishga ehtiyoj saqlanib qolgan.

An'anaviy davolash muolajalaridan bir oy o'tgach amalga oshirilgan takroriy EOD 8 (40%) bemor ko'rsatkichlari me'yorlashgani, 7 nafarida (35%) qo'zg'aluvchanlik chegarasining oshishi saqlanib qolganini ko'rsatdi, 5 (25%) nafar bemorda esa ijobjiy dinamika kuzatilmadi (1-diagramma).



1- diagramma. An'anaviy davolashdan bir oy keyin o'tkazilgan takroriy EOD natijalari


Shunday qilib, pastki jag' sinishi aniqlangan bemorlarda an'anaviy davolashdan keyin tishlarning elektr qo'zg'aluvchanligi birmuncha pasaydi, lekin, uning me'yoriy qiymatlardan baland ekani pastki alveolyar nerv sensor funksiyasining jiddiy buzilishidan darak berib turdi.

Bemor bo'limga olib kelinganda o'tkazilgan paypaslash 4(20%) shaxsda m.masseter va m.temporalis gipertonusi borligini ko'rsatdi. Davolash muolajalardan keyin bir o'tgach, 3 odamda gipertonus saqlanib qoldi, 1 shaxsda esa chaynov mushaklari atrofiyasini aniqlandi, bu esa uch shoxli nerv harakat funksiyalarining barqaror buzilishidan darak beradi.

6 (30%) bemorda trigeminal somatosensorli qo'zg'atilgan potensiallar (SSQP) tekshiruvi o'tkazildi va u yaqqol tuzilmaviy nuqson saqlanib qolayotganini namoyish etdi, bu esa latentlik davrining uzayishi, erta komponentlar amplitudasining kamayishi, shuningdek, elektr qo'zg'aluvchanligiga xos boshlang'ich sezuvchanlik chegarasining kengayishi va erta komponentlarning yo'qolishi orqali namoyon bo'ldi. 2-guruuhda giperestetik o'zgarishlar aniqlangan bemorlarning 13 nafarida og'riq sezuvchanligi, 10 nafarida esa taktil sezuvchanlikning buzilishi qayd qilindi. Gipestetik muammolarga ega bemorlarda taktil va harorat sezuvchanligining buzilishi 6 nafar, chuqur sezuvchanlik esa 2 shaxsda saqlanib qoldi.

Shunday qilib, ENMG ma'lumotlari reflektor javobning ertangi va kechki komponentlari miqdorining normal qiyanlari oshganini ko'rsatdi. Trigeminal SSQPni qayd etishda latentlik davri cho'zilgani saqlanib qolgani kuzatildi va reflektor javobning erta komponentlari ro'yxatga olindi.

Kompleks davolashdan o'tgan 3-guruh bemorlarida uch shoxli nerv sensor faoliyati tiklanishining yaqqol ko'zga tashlanadigan ijobiy dinamikasi kuzatildi. Barqaror disfunksiya ko'rinishlarining eng kichik ulushi ham shu guruh bemorlarida qayd qilindi.



2 - diagramma. Tadqiqot guruhlari dagi EOD ko'rsatkichlarining o'zgarish dinamikasi

Klinik va funksional tadqiqotlar natijalari yuz-jag' sohasining uch shoxli nerv periferik tarmoqlari shikastlanishi bilan kechadigan sinishlarini kompleks davolash asab tolalarining sensor va motor faoliyatini tiklash bo'yicha ijobiy natijalarni shakllantirishda samarali ekani, shuningdek, an'anaviy terapiya bilan taqqoslaganda, suyak bo'laklarining tezroq birikishiga xizmat qilishini namoyish etdi.

Xulosa: Og'irlilik darajalariga ko'ra yuz-suyaklari sinishlari asab-qon tomir tutamlarining jarohatlarida "Neyromedin" dori vositasilari ta'sirini qonda mielin oqsili ko'rsatkichlari xolatiga ko'ra davo samaradorligini taxlil qildigan bo'lsak, klinik va funksional tadqiqotlar natijalari yuz-jag' sohasining uch shoxli nerv periferik tarmoqlari shikastlanishi bilan kechadigan sinishlarini kompleks davolash asab tolalarining sensor va motor faoliyatini tiklash bo'yicha ijobiy natijalarni shakllantirishda samarali ekani, shuningdek, an'anaviy terapiya bilan taqqoslaganda, suyak bo'laklarining tezroq birikishiga xizmat qilishini namoyish etdi.

References:

1. Абдуллаев Ш.Ю. Остеопластические материалы для ущерба дефектов и деформаций челюстно-лицевой области. / Ш.Ю. Абдуллаев, Н.В. Храмова // Стоматология. 2018. - Т. 59–60, № 1-2. - С. 98-101.
2. Абдуллаев А. и др. ПОРОГ ВОЗБУДИМОСТИ ПРИ НЕВРИТЕ ВЕТВЕЙ ЛИЦЕВОГО НЕРВА // Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 6 Part 4. – С. 27-32.
3. Абрамов Н.В., Шарахова Е.Ф. Динамика основных показателей травматизма населения Кемеровской области // Сибирское мед. обозрение. 2019. - №2. -С. 41-44.
4. Байриков И.М., Логинов О.А., Савельев А.Л. и др. Сравнительный математический анализ применения накостных пластин для остеосинтеза отломков нижней челюсти // Вестник Российской Военно-Медицинской Академии. Приложение, 2019. - №1.- С. 65-66.
5. Бузрукзода Ж. Д. и др. УСТРАНЕНИЕ ПЕРФОРАЦИИ ДНА ВЕРХНЕЧЕЛЮСТНОГО СИНУСА С ПРИМЕНЕНИЕМ ОСТЕОПЛАСТИЧЕСКОГО МАТЕРИАЛА // Интернаука. – 2021. – №. 7-1. – С. 25-27.



6. Ерокина Н.Л. Ранняя диагностика осложненного течения переломов нижней челюсти и обоснование иммунокоррекции: Автореф. дис. ... канд. мед. наук. - Волгоград, 2018. 16 с.
7. Жартыбаев Р.Н. Профилактика посттравматических осложнений при переломах нижней челюсти: / Дис. ... - Алма-Ата, 2008. 158 с.
8. Железный П.А. Результаты костной пластики нижней челюсти у детей и подростков // Восстановительная хирургия челюстно-лицевой области. -М., 2015. - С. 107-109.
9. Иорданашвили А.К. Заболевания, повреждения и опухоли челюстно-лицевой области: руководство по клинической стоматологии / А.К. Иорданишвили - Санкт-Петербург, СпецЛит, 2007. 494 с.
10. Иорданишвили А.К., Слугина А.Г., Балин Д.В. и др. Возрастные особенности репаративного остеогенеза челюстей // Курский научно-практический вестник «Человек и его здоровье». 2014. № 3. - С. 15-21.
11. Калиновский Д.К., Матрос-Таранец И.Н., Алексеев С.Б. Совершенствование оказания медицинской помощи на этапах лечения и реабилитации пострадавших с травмами челюстно-лицевой области / Д. К. Калиновский, // Врач скорой помощи. - 2009. - № 5. - С. 18-24.
12. Alimdjanovich R. J., Abdullaev A. S. PASTKI ALVEOLYAR NERV YALLIG'LANISHINI DAVOLASHDA NUKLEO CMF FORTE NING O'RNI //Евразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 82-92.
13. Alimdzhanovich R. J., Sarkhadovich A. A. Prospects for the treatment of neuritis in fracture of the lower jaw //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 4. – С. 712-717.
14. Abdullaev A., Turopov F., Narzikulov D. POSTTRAUMATIC NEURITIS OF THE INFERIOR ALVEOLAR NERVE //Бюллетень студентов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 6 Part 2. – С. 67-70.
15. Fayzullaev U. R., Sarkhadovich A. A. A METHOD FOR INCREASING THE EFFECTIVENESS OF CHON-DROPROTECTIVE THERAPY IN PATIENTS WITH TMJ ARTHRITIS-ARTHROSIS ACCOMPANYING CERVICAL OSTEOCHONDROSIS //Asian journal of pharmaceutical and biological research. – 2022. – Т. 11. – №. 2.
16. Sarkhadovich A. A., Saidalimovich K. A., Alimdjanovich R. J. ПОРОГ ВОЗБУДИМОСТИ ПРИ НЕВРИТЕ НИЖНЕАЛЬВЕОЛЯРНОГО НЕРВА //JOURNAL OF BIOMEDICINE AND PRACTICE. – 2022. – Т. 7. – №. 4.
17. Turanboyev B., Abdupattayev A., Abdullaev A. INFLYATSIYANING QIMMATLI QOG'OZLAR DAROMADIGA TA'SIRI //Yosh Tadqiqotchi Jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 88-100.